ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME - 9

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME – 9

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

‘‘XIRMONDALI’’ DOSTONINING SHE’RIY QISMIDA KELISHIK QO‘SHIMCHALARINING QO‘LLANISHI

Saliyeva Charos G‘ani qizi
RANCH texnologiyalar universiteti magistri

Annotatsiya. Mazkur maqolada ‘‘Xirmondali’’ dostonining kitobiy variantining she’riy qismlarida sintaktik shakl yasovchi kelishik qo‘shimchalar tahlil qilinib, ularning tarixiy varianti, shevaga xosligi va qo‘llanish usuli tadqiq qilingan. Bundan tashqari, til taraqqiyotida kelishik qo‘shimchalari qanday tarzda o‘zgari borishini ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar. Morfemika, morfema, leksemshakl, antroponim, olmosh, affiks, o‘g‘uz, qofiyadosh, fonetik hodisa.

Аннотация. В данной статье анализируются синтаксические аффиксы, образующие формы в поэтических частях книжной версии эпической поэмы «Хирмондали», и исследуются их исторический вариант, диалектная специфика и способ употребления. Кроме того, рассматривается изменение аффиксов в процессе развития языка.

Ключевые слова: морфемика, морфема, лексема, антропоним, местоимение, аффикс, огуз, рифма, фонетический феномен.

Abstract. This article analyzes the syntactic form-forming affixes in the poetic parts of the book version of the epic poem "Khirmondali", and examines their historical variant, dialect specificity, and method of use. In addition, it is possible to see how affixes change in the development of the language.

Keywords. Morphemics, morpheme, lexeme form, anthroponym, pronoun, affix, Oguz, rhyme, phonetic phenomenon.

KIRISH.

Baxshilar tomonidan kuylanib kelingan xalq dostonlarisiz xalq og‘zaki ijodini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ular o‘zida ajdodlarimizning yuksak saviyasini, madaniyatimizning go‘zaligini va tilimizning naqadar boyligini jamlagan noyob xazinalardan biridir.

‘‘Xirmondali’’ dostoni o‘zbek, qoraqalpoq va turkman xalqlari tomonidan azal-azaldan sevib kuylanib kelingan dostonlardan biri bo‘lib, o‘zbek tili grammatikasi, dialektologiyasi va tilshunosligi uchun muhim manba sanaladi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek tilining qanday rivojlanganini o‘zining xalqona tili bilan ko‘rsatib beradi.

Ma’lumki, kelishik qo‘shimchalari morfemika bo‘limining sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar guruhiga kiradi. Morfemika bo‘limi qo‘shimchalarni o‘rganuvchi grammatikaning bir tarmog‘idir. Kelishik qo‘shimchalarini so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchlar atamasi bilan ham ishlatiladi. Ular gapdagi so‘zlarni bir-biriga hokim va tobe munosabatda bog‘lashda ishlatilib, ot va otlashgan

ISSN 3030-3907

yetakchi morfemalardan keyin ko‘makchi morfema sifatida qo‘shilib Yetakchi morfema so‘zning asos qismi bo‘lib, ko‘makchi morfema asos ya’ni, yetakchi morfema qismiga qo‘shiladi. Kelishik qo‘shimchalari ot va otlashgan so‘zlarni turlashda ishlatiladi.

Dostonda kelishik qo‘shimchalarini turli ko‘rinishlarda uchratishmiz mumkin.

Bir nechani yo‘lin to‘sdim,
Nichchalarni dorg‘a osdim,
Nichchani kalasin kesdim,
Borxo kampirjon xabar ber.[5]

Yuqorida keltirilgan parchada nechani, yo‘lin, nichchalarni, dorg‘a, nichchani va kalasin so‘zlarida kelishik qo‘shimchalari ishlatilgan. Ulardagi kelishik qo‘shimchalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, nechani va nichchani olmoshlarida qaratqich kelishigining -ni shaklidan foydalanilgan. Qaratqich kelishigining bunday shakli o‘g‘zaki nutqda va Xorazm shevasida uchraydi. Hozirgi zamonaviy o‘zbek tilshunosligida qaratqich kelishikining -ning shakli ishlatiladi. Nichchalarni leksemshaklida -ni tushum kelishigi qo‘llanilgan, kelishikning bunday shaklini o‘zbek tili taraqqiyotining barcha davrlarida ishlatilib kelinayotgan qadimiy sinaktik shakl yasovchi qo‘shimchalardan biri sanaladi. Yo‘lin va kalasin so‘zida ham III shaxs egalik qo‘shimchasidan keyin ishlatilgan tushum kelishigining -n shakli ishlatilgan bo‘lib u ham iste’molda keng foydalanilgan. Bu qo‘shimcha III shaxs egalik qo‘shimchasidan keyin -n shaklida qo‘llanilgan. Kelishik qo‘shimchasi ishlatilgan ishlatilgan dorg‘a so‘zidagi -g‘a affiksi jo‘nalish kelishigi sanaladi. XIX asrgacha unli va jarangli undosh bilan tugagan so‘zlarda keng foydalanilgan, vaqt o‘tishi bilan bu qoida eskirib, unga amal qilinmay qo‘yilgan. Hozirgi kunda tilshunosligimizda ko‘proq -ga shaklidagi kelishik qo‘shimchasi ishlatiladi.

G‘o‘ch yigit omadi kelur ilg‘ordin,
Bir madad olurman Hazrat Alidin,
Arslonboyning qizi Xirmondalidin,
Biza bir nozlidin xabar kelibdur.[6]

Keltirib o‘tilgan she’riy parchada yigit, ilg‘ordin, Hazrat Alidin Arslonboyning, Xirmondalidin, biza va nozlidin so‘zlarida kelishik qo‘shimchalari mavjud. Yigit so‘zida qaratqich kelishigi badiiy nutqqa xos tarzda belgisiz ishlatilgan. Ma’lumki, kelishiklar belgili va belgisiz ham qo‘llaniladi. Kelishiklarning belgili shakli ishlatilishi nutqda aniq aks etsa, belgisiz shakli

[5] Ro‘zimboyev S.Oshiqnoma. 4-kitob, Xorazm nashiryoti.2009. -B. 149.
[6] Ro‘zimboyev S.Oshiqnoma. 4-kitob, Xorazm nashiryoti.2009. -B. 151.

ISSN 3030-3907

tushirib qoldirilgan bo‘ladi. Ilg‘ordin, Hazrat Alidin, Xirmondalidin va nozlidin leksemshaklarida -din shaklidagi chiqish kelishigi ishlatilgan bo‘lib, bunday shaklni XI asr yodgorliklarida ham ko‘rishimiz mumkin. Bugungi tilshunosligimizda chiqish kelishigi sifatida -dan affiksi qo‘llaniladi. Arslonboyning antroponimida -ning qaratqich kelishigi ishlatilgan. Biza so‘zinig kishilik olmoshi -a jo‘nalish kelishigi affiksi bilan qo‘llanilgan. Jo‘nalish kelishigining bunday shakli asosan ikkita holatda foydalanilgan:

1. Jarangli undosh bilan tugagan leksemalarga qo‘shilgan.
2. I va II shaxs birlikdagi egalik qo‘shimchalari, III shaxs birlikdagi egalik va ko‘plik qo‘shimchalari bilan tugagan leksemalarga qo‘shilgan.

Kishilik olmoshidagi jo‘nalish kelishigi affiksi birinchi qoidaga muofiq keladi. So‘z asosiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shilishi XIII-XIV asrlarda mavjud bo‘lgan Bunga ko‘ra biz leksemasi jarangli z undoshi bilan tugagani uchun shu tarzda qo‘llanilgan. Unli tovush bilan tugagan so‘zlarda -ya tarzida qo‘llanilib tovush ortishi hodisasi vujudga kelgan. Ko‘p holatlarda qadimgi yodgorliklarda egalik qo‘shimchalaridan keyin ishlatilgan. Kelishik shaklidagi -a qo‘shimchasi odatda turkiy tillarning o‘g‘uz lahjasida uchraydi. Bugungi kunda bu holat Xorazm shevasida saqlanib qolgan. Hozirgi kunda -a affiksi o‘rniga jo‘nalish kelsihigi sifatida -ga (ka, qa) shaklidan foydalaniladi.

Qirq kishi tushimda berdi javobi,
Qo‘llarini olib o‘pdim tavobi,
Birisi ko‘tarib gulgun sharobi,
Birining qo‘linda piyola keldi.[7]

Yuqorida keltirilgan she’riy misralarda tushimda, javobi, qo‘llarini, tavobi, sharobi, birining va qo‘linda kelishik qo‘shimchalari bilan turlangan so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin. Tushimda va qo‘linda so‘zlarida -da o‘rin-payt kelishigi ishlatilgan. Bu kelishik o‘zbek tilida keng foydalanilib kelinyotgan qo‘shimcha hisoblanadi. Baza’n boshqa kelishiklar o‘rnida ham qo‘llaniladi. Qo‘linda o‘rin-payt kelishigi fonetik hodisaga uchrab n tovushi ortgan. Bunday holatlar asosan XIII-XIV asrlarda III-shaxs egalik qo‘shimchasidan keyin -da o‘rin-payt kelishigi qo‘shilgan paytda vujudga kelgan, bugungi adabiy tilimizda egalik qo‘shimchasidan keyin o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilganda -n tovushi ortishi kabi fonetik hodisa uchramaydi. Shunday bo‘lsada, Xorazm vohasining shevasida bu holat bugungi kunga qadar saqlanib qolgan. Hozirda bu holatdagi tovush ortishi hodisasi shu, bu va u kabi ko‘rsatish olmoshlariga o‘rin payt kelishigi affiksi qo‘shilganda n tovushi ortadi. Tavobi, javobi, qo‘llarini va sharobi so‘zlarida tushum kelishigi ishlatilgan. Tavobi, javobi va sharobi

[7] Ro‘zimboyev S.Oshiqnoma. 4-kitob, Xorazm nashiryoti.2009. -B. 160.

ISSN 3030-3907

so‘zlarida tushum kelishigi belgisiz, qo‘llarini so‘zida esa belgili holatda qo‘llanilgan. Birining leksemshaklida qaratqich kelishigi belgili holatda ishlatilgan.

Uch yuz qiz kezar yoninda,
Armon qolmadi jonimda,
O‘zining gul bo‘stoninda,
Qo‘l yetmgan qizni bersin.[8]

Keltirilgan she’riy parchada yoninda, jonimda, o‘zining, bo‘stoninda va qizni so‘zlarida kelishik qo‘shimchalari ishlatilgan. O‘rin-payt kelishigi yoninda va bo‘stoninda qofiyadosh so‘zlarga qo‘shilib -n tovushining ortishi unga alohida ohang baxsh etgan, jonimda so‘zida I shaxs egalik qo‘shimchasidan keyin ishlatilgan. O‘zining so‘zida -ning qaratqich kelishigi va qizni so‘zida tushum kelishigi ishlatilgan.

Arzim eshit Go‘ro‘g‘libek,
Biza bir sevar yor keltir,
Bir yordin bo‘ldim xoru zor,
Mango bir yaxshi yor keltir.[9]

Yuqorida keltirilgan misralarda arzim, biza, yor, yordin va mango so‘zlarida kelishik affiksalari turli tarzda ishlatilgan. Xususan, tushum kelishigi qo‘shimchasi arzim va yor so‘zlarida belgisiz qo‘llangan bo‘lsa, biza va mango so‘zlarida jo‘nalish kelishigi belgili ifodalangan. Biza so‘zida -a shaklida mango so‘zida esa -go shaklida jo‘nalish kelishigi qo‘llangan. Mango so‘zidagi -go qo‘shimchasi tarixiy lingvistikaning namunasi bo‘lib, g‘azalarda juda ko‘p ishlatilgan. Shevaga xos man olmoshiga -go shaklida jo‘nalish kelishigini qo‘shilishi unga shakldosh bo‘lgan mango mevasini inson ongida shakllantirmay qo‘ymaydi. Chiqish kelishigi -din tarzda ishlatilishini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, dostonda foydalanilgan kelishik qo‘shimchalarining qo‘llanish davri XI asrdan boshlab ishlatilgan kelishiklarning to hozirgi kunga qadar ishlatilib kelingan o‘ziga xos shakllarini ko‘rishimiz mumkin. Doston haqida shuni aytish mumkinki, u avlodan-avlodga o‘tar ekan undagi tilshunoslik grammatikasi ma’lum darajada o‘zgargan, oldin va hozir ishlatilib kelinayotgan sheva elementlari saqlanib qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. ‘‘Oshiqnoma’’ ‘‘Xirmondali’’ dostoni 4-kitob -Xorazm: Xorazm, 2009.
2. ‘‘Devonu lug‘atit turk’’ 1-kitob Toshkent: O‘zbekiston FA nashiryoti, 1960.

[8] Ro‘zimboyev S.Oshiqnoma. 4-kitob, Xorazm nashiryoti.2009. -B. 166.
[9] Ro‘zimboyev S.Oshiqnoma. 4-kitob, Xorazm nashiryoti.2009. -B. 167.

ISSN 3030-3907

3. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.
4. Hozirgi o‘zbek adabiy tili-Toshkent: Talqin ,2005
5. O‘zbek tilining tarixiy morfologiyasi -Toshkent: Fan, 1990.
6. Folkloshunoslikka kirish -Toshkent: Barkamol fayz media, 2017.

ISSN 3030-3907